Maktab direktorlarini qo'llab-quvvatlashda asosiy ustun amaliyotlar va o'zbekiston ta'lim tizimida ularni qo'llash imkoniyatlari	1059
Mamura Tadjibayeva	
Sun'iy intellekt asosida matematik masalalarni yechish algoritmlari	1064
Oqnazarov To'liqin Jalilovich, Jo'rayev Mardon	
Global ta'lim makonida milliy tarbiyani rivojlantirish istiqbollari	1071
Sanaqulov Sardor Istamqulovich	



Bank xizmatlari sifati va bank daromadlariga ta'sir etuvchi omil sifatida personal faoliyatining o'rni.....	1075
Abdukaxarova Shoira Abduvahobovna	
Fond bozori raqamli iqtisodiyotda investitsiyalarni shakllantirish manbai sifatida.....	1079
Kamilova Sevara Anvarovna	
O'zbekistonda toza suv va sanitariyaning inson hayoti hamda iqtisodiy farovonlikka ta'siri: BRM-6 doirasida tahlil.....	1085
Xasanova Iroda Azizbek qizi	
Increasing the effectiveness of using marketing communications in the tourism services market.....	1090
Sobirjonov Asrorbek Sobitjon ugli	
Davlat xaridlari sohasini takomillashtirish istiqbollari.....	1095
Bazarov Nazirjon Sobirovich	
Xarajatlarning strategik boshqaruv hisobini xo'jalik yurituvchi subyektlarda takomillashtirish.....	1103
Xayitboeva Laylo Oybekovna	
Davlat moliyaviy nazorati tizimida tashqi audit: rivojlangan mamlakatlar amaliyoti.....	1109
Kuliyev Komil Shuxratovich, A.Astanovulov	
Moliyaviy instrumentlarni hisobga olishda biznes modelning ahamiyati va amaliy yondashuvlar.....	1114
Shanasirova Nodira Abdullayevna	
Tijorat banklarida risklarni boshqarishning ustuvor yo'nalishlari.....	1118
Tursunov Ilxom Toirovich	
Chakana va ulgurji savdo korxonalari faoliyatini rivojlanishiga tasir etuvchi omillarni baholash.....	1124
Yuldasheva Gulmira	
Managing tourism in fragile ecosystems: a case study approach.....	1128
Dilmurod Nasimov, Shahrizoda Sirojiddinova	
Tadbirkorlikni innovatsion-investitsion jihatdan baholash uslublari.....	1134
Fayziyev Shavkat Shaxobidinovich	
Зарубежный опыт развития инновационной деятельности предприятий энергетической отрасли.....	1141
Бегмуллаев Отабек Ирисалиевич	
Leveraging machine learning for big data analytics: a strategic overview.....	1148
Ismaylov Timur Kuanishbaevich, Kurbanbaev Bakhtiyar Bakhitovich, Orazbayev Aqilbay Jenisbay uli	
Ta'lim muassasalarida xarajatlar smetasi ijrosining dastlabki hisobini yuritilishi.....	1152
Isoqulov Fazliddin Shamsiddin o'g'li	
"Yengil sanoat korxonalarini qo'llab-quvvatlash choralari haqida".....	1158
Otaxanova Umida Olim qizi	
Investitsion-qurilish jaryonlarini samarali boshqarishning tashkiliy modellari va ulardan foydalanish usullari.....	1162
Abduvaliyev Bekzod Muxiddin o'g'li	
Qimmatli qog'ozlar bozorining mohiyati bo'yicha nazariy asoslar.....	1169
Alimov Ilxomjon Ikromovich, Ikramov Akmalbek Ilxomjon o'g'li	
Adoption of electric vehicles in logistics: opportunities and challenges in Uzbekistan.....	1175
Oblokulova Parvina	
Qishloq xo'jaligiga investitsiyalarni jalb qilishning xorijiy mezonlari.....	1182
Jurayev Abdug'affor Sofarovich, Nazirova Sayyora Baxtiyorovna	
Raqamli transformatsiya jarayonlarining mehnat bozori konyukturasiga ta'siri.....	1187
Fayzullayev Nurulla Baxromovich, Xudaybergenova Shukurjon Erkinovna	
Milliy iqtisodiyotda internet xizmatlarini rivojlantirishning o'ziga xos yondashuvi.....	1194
Niyozova Shohsanam Nuritdinovna	



Auditorlik xulosalarini shakllantirishda auditorlik dalillariga qo'yiladigan talablar	1199
Qo'shmatov Otaxon Qurbonaliyevich	
Qishloq xo'jaligi sohasini takomillashtirishda investitsion loyihalarning iqtisodiy mohiyati	1203
Israilova Xikoyat Musakulovna	
Kichik biznes faoliyatini rivojlantirishning nazariy-uslubiy asoslari	1207
Dadaboyeva Marguba Mamasoliyevna	
Eko va agro-turizmga raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqishning istiqbollari	1212
Nurfayziyeva Mohinur Zayniddinovna	
The importance of the cluster system in the agricultural field	1217
Sherkulov Shokhrux Erkin o'g'li	
Qishloq xo'jaligi sug'urtalash tizimini takomillashtirish yo'llari	1221
Mardonov Mashrab Mansurovich, Muxtorov Abduxolik Abdusalimovich	
Aksiz solig'i amaliyotining genezisi, milliy xususiyatlari, turlari va vazifalarining nazariy jihatlarini	1225
Shodiyev Olimjon Abduraxmonovich	
Iqtisodiyotning real sektor tushunchasi, uning tarkibi va iqtisodiyotdagi ahamiyati	1230
Mahmudov Nurali Komilovich	
Korporativ moliya tizimini rivojlantirishda raqamli moliya vositalari va texnologiyalarning integratsiyasi	1241
Xalbekov Ozodbek Xudoykulovich	
The influence of tour interpretation on perceived heritage values: a comparative analysis of tourists with and without guided interpretation at a heritage destination	1245
Shokhnigorbegim Juraeva	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida aloqa xizmatlarini rivojlantirish va samaradorligini oshirishning metodologik asoslarini takomillashtirish	1252
Xazratov Abror Panjiyevich	
Madaniy meros obyektlari asosida barqaror turizmni rivojlantirish strategiyalari	1257
Abriev Zoirjon	
Пути инновационного развития национальной экономики	1262
Жураев Тошболта Тухтаевич	
Hududlarda turizmni rivojlantirishda to'siqsiz, barqaror turizmni tashkil etish zarurati	1267
Jo'rayeva Nargiza Abduvohidovna	
Application of ifrs in budgetary accounting	1272
G. Djambakieva	
Transport xizmatlari sektorining rivojlanishini statistik tahlili: xorazm viloyati misolida	1276
Raximov Alisher Ibragimovich	
O'zbekistonda 2024-yil davomida yirik soliq to'lovchilarni soliq ma'murchiligi tahlili	1281
Xushatov Nuriddin Maxmatqulovich	
Zamonaviy ta'lim sifatini baholashning nazariy-metodologik asoslari	1288
Rahimova Qutlibika Ergashevna	
Chakana va ulgurji savdo korxonalari faoliyatini rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarni baholash	1293
Yuldasheva Gulmira	
Zamonaviy axborot tizimlari orqali soliq qarzdorligini undirish mexanizmining takomillashtirish yo'llari	1296
Maxmadustov Jalol Maxmadustovich	
Hududlarda pillachilikni rivojlantirishning huquqiy asoslari va imkoniyatlari	1303
G'oziyeva Aziza Abdusalomovna	
Korxonaning investitsion jozibadorligi oshirish yo'llari	1313
Axtamova Parizod Oybek qizi	
Raqamli texnologiyalar yordamida inklyuziv ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari	1319
Adilova Zulfiya Djavdatovna, Shoev Alim Xalmuratovich	



Yog' – moy sanoati korxonalarida soliqlar hisobi va auditi jarayonlarida tahliliy amallardan foydalanish samaradorligini oshirish.....	1327
A'zamova Aziza Olimjon qizi	
Qurilish materiallari ishlab chiqarish faoliyati iqtisodiy samaradorligini oshirishning xorij tajribasi.....	1334
Umirova Gulmira Shodiboy qizi	
Xalqaro moliya-kredit institutlar bilan hamkorlikning iqtisodiy-huquqiy asoslari	1343
Qosimov Bobur Sobirovich	
Iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda yengil sanoat eksporti diversifikatsiyasining roli va yo'nalishlari.....	1347
Otamurodov Shavkat Nusratillayevich, Eshqulova Nasiba Normo'minovna	
Система раннего предупреждения о снижении финансовой устойчивости предприятия на основе ключевых показателей эффективности (KPI).....	1359
Тажибаева Кизларгул Ажиниязовна	
Soliq tizimida soliq riskini baholash va boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish uslubiyoti.....	1374
Nasimov Ravshanjon Azimovich	
Sanoat korxonalarining innovatsion boshqaruvi tahlili va uning xususiyatlari	1383
Sarimsaqov Doniyor Xomidovich	
Surxondaryo viloyatida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faol korxonalar va tashkilotlar tahlili	1390
Normurodov Alibek Anvar o'g'li	
Mehnat bozori: rivojlanish tendensiyalarining iqtisodiy-statistik tahlili, baholash va istiqbollari.....	1396
Mirzayeva Odina Imomnazar qizi	
Адаптивная модель антикризисных мероприятий, направленных на повышение эффективности управления активами, оптимизацию затрат и реструктуризацию задолженности	1402
Tajibayeva Kizlargul Ajiniyazovna	
Xalqaro va ichki turistik bozorlarda o'zbekistonning turistik mahsulotlarini targ'ib qilish mexanizmi	1409
Mamayusupova Dilovarxon Begmatovna	
Tourism infrastructure constraints and service gaps in uzbekistan's visitor economy.....	1412
Kurolov Maksud Obitovich, Xamidjonova Moxinur Xayrulla qizi	
Основные проблемы перехода на МСФО в республике узбекистане	1419
Махмудов Жамшед Ашрафович	
Binolar loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqishning nazariy va amaliy asoslari.....	1425
Usmonov F.B., Rajabova A.Sh.	
Ayrim ta'lim tizimi bilan bog'liq terminlarning izohli lug'at va etimologik lug'at o'rtasidagi farqi.....	1429
Mahbuba Xoliqova Abdimo'min qizi	
Mahalliy budjet daromadlarini shakllantirishda soliq salohiyatining ahamiyati	1433
Sharipov Narzullo G'ulomovich	
Corpus-based framework of english teaching for competency-oriented curriculum design	1448
Raximova Gulnoza Sharipjanovna	
Masofaviy ta'lim tizimida matematika fanlarni o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari	1454
Ustadjalilova Xurshida Aliyevna	
Texnologik inqilob va mehnat bozorining transformatsiyasi	1459
A'zamova Feruza, Kuldoshev Lazizjon Sharifovich	
Sifat menejmenti tizimini rivojlantirish asosida uy-joy fondlarini boshqarish samaradorligini oshirishning asosiy yo'nalishlari.....	1465
Rasulova Muxabbat Teshabayevna, Normurodov Sarvar Norboy o'g'li	



O'zbekistonda ekologik turizm: yashil iqtisodiyot rivojini tezlashtiruvchi omil.....	1471
Rashidov Saidislom	
Navoiy viloyatida yirik sanoat monopoliyalarini rivojlantirishning tabiiy-iqtisodiy salohiyati ("Qizilqumsement" AJ misolida).....	1474
Savrieva Madina Xakimovna, Xamroyeva Shaxnoza Ibrohim qizi	



NAVOIY VILOYATIDA YIRIK SANOAT MONOPOLIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING TABIIY-IQTISODIY SALOHIYATI (“QIZILQUMSEMENT” AJ MISOLIDA)



Savrieva Madina Xakimovna

Urganch davlat universiteti

mustaqil tadqiqotchisi

E-mail: savrievamadina@gmail.com



Xamroyeva Shaxnoza Ibrohim qizi

Navoiy innovatsiyalar universiteti

Iqtisodiyot yo'nalishi 3-kurs talabasi

E-mail: hamroevasahnoza888@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada bugungi kunda yirik sanoat monopoliyalarini rivojlantirishda strategik ahamiyat kasb etuvchi tabiiy-iqtisodiy salohiyat tahlil qilinadi. Ushbu salohiyat mintaqada iqtisodiy barqarorlikni ta'minlovchi "lokomotiv" sifatida xizmat qilmoqda. Jumladan, Navoiy viloyatidagi yirik sanoat korxonalari, xususan "Qizilqumsement" AJ misolida korxonaning moliyaviy-iqtisodiy ko'rsatkichlari, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish, soliq siyosati, investitsiyalarni jalb qilish, mahsulot narxini pasaytirish va sifatni oshirish borasidagi yutuqlari yoritilgan. Shuningdek, ishlab chiqarish jarayonlarini boshqarish va nazorat qilish tizimlari bo'yicha ma'lumotlar taqdim etilgan.

Kalit so'zlar: yirik korxona, monopoliya, sanoat, mintaqani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, sof tushum, aholi bandligi, ishlab chiqarish hajmi, yalpi foyda, soliq yuki.

Abstract: The article analyzes the natural and economic potential that plays a strategic role in the development of large industrial monopolies today. This potential serves as a "locomotive" ensuring economic stability in the region. Using the example of "Kizilkumsement" JSC – one of the largest industrial enterprises in the Navoi region – the paper presents data on financial and economic indicators, cost reduction, tax policy, investment attraction, pricing, and product quality improvement. It also provides insights into systems of production management and control.

Key words: large enterprise, monopoly, industry, socio-economic development of the region, net income, employment, production volume, gross profit, tax burden.

Аннотация: В статье анализируется природно-экономический потенциал, обладающий стратегическим значением для развития крупных промышленных монополий в современных условиях. Данный потенциал рассматривается как "локомотив", обеспечивающий экономическую стабильность в регионе. На примере АО «Кызылкумцемент» – одного из крупнейших промышленных предприятий Навоийской области – приведены данные о финансово-экономических показателях, снижении производственных издержек, налоговой политике, привлечении инвестиций, снижении цен и повышении качества продукции. Также освещены аспекты управления и контроля производственных процессов.

Ключевые слова: крупное предприятие, монополия, промышленность, социально-экономическое развитие региона, чистый доход, занятость, объем производства, валовая прибыль, налоговая нагрузка.



KIRISH

Bozor iqtisodiyoti sharoitida yirik sanoat korxonalari mamlakat iqtisodiy barqarorligining tayanchi, innovatsion faoliyatning drayveri va bandlikni ta'minlovchi muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Ayniqsa, tabiiy resurslarga boy hududlarda faoliyat yuritayotgan sanoat monopoliyalari hududiy rivojlanishga kuchli turtki bermoqda. Navoiy viloyati bu borada O'zbekiston sanoat salohiyatining muhim markazlaridan biri hisoblanadi. Mazkur maqolada "Qizilqumsement" aksiyadorlik jamiyati misolida yirik sanoat monopoliyasining mintaqaviy iqtisodiyotga ta'siri, moliyaviy barqarorligi, investitsion faolligi va soliq yukining xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari mintaqaviy sanoat siyosatini takomillashtirish hamda barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda amaliy ahamiyat kasb etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Shumpeter¹ nazariyasida "yirik korxonalar" – bu innovatsiyalar orqali bozorda raqobatni shakllantiradigan iqtisodiy subyektlar sifatida ta'riflanadi. Piter Druker² esa "yirik korxona"ni resurslarni (kapital, mehnat, texnologiya) muvofiq tarzda boshqaradigan, sanoatga hamda bozorga sezilarli ta'sir ko'rsata oladigan murakkab tashkilot sifatida tavsiflaydi.

Fikrimizcha, yirik korxona — bu ko'p sonli xodimlar, katta miqdordagi moliyaviy aylanma va aktivlar, murakkab tashkiliy tuzilishga ega bo'lgan, makroiqtisodiy ko'rsatkichlarga sezilarli ta'sir ko'rsatuvchi tijorat subyekti hisoblanadi.

Yirik korxonalarni aniqlash mezonlari har bir mamlakatda o'ziga xos tarzda belgilanadi. Biroq xalqaro amaliyotda odatda quyidagi uchta asosiy ko'rsatkichga e'tibor qaratiladi: doimiy ishchi-xodimlar soni 250 nafardan ortiq bo'lishi; yillik aylanma (daromad) hajmi 50 million yevro yoki unga teng milliy valyutadan yuqori bo'lishi; balans aktivlari qiymati esa 43 million yevro yoki shunga teng ekvivalent miqdordan oshishi lozim.

O'zbekiston Respublikasida yirik korxonalarni tashkil etish mezonlari qonunchilik va iqtisodiy amaliyotda aniq belgilangan ko'rsatkichlar asosida aniqlanadi. Ushbu mezonlar korxonaning hajmi, moliyaviy ko'rsatkichlari, ishchi-xodimlar soni va faoliyat ko'lamiga tayanadi. Xususan, yirik korxona quyidagi talablarga javob berishi lozim:

Ishchi-xodimlar soni – 100 nafardan ortiq doimiy ishchi va xizmatchilarga ega bo'lishi;

Yillik moliyaviy aylanma (tushum) – 100 milliard so'mdan ortiq yillik tovar (ish, xizmat) realizatsiyasiga ega bo'lishi;

Balans aktivlarining umumiy qiymati – aniq belgilangan bo'lmasa-da, ishlab chiqarish uskunalari, bino-inshootlar va investitsiyalar kabi katta hajmdagi aktivlarga egaligi talab etiladi;

Tashkiliy-huquqiy shakli – yirik korxonalar, odatda, aksiyadorlik jamiyati (AJ), mas'uliyati cheklangan jamiyat (MCHJ), korporatsiya yoki xolding kompaniyasi shaklida ro'yxatdan o'tkaziladi;

Strategik yoki muhim iqtisodiy sohaga taalluqlilik – bunday korxonalar, asosan, energetika, neft-gaz, kimyo, mashinasozlik, metallurgiya, transport, aloqa va qurilish materiallari ishlab chiqarish kabi sohalarda faoliyat yuritadi.

Sanoat – bu mahsulotlarning umumiy maqsadi, foydalaniladigan xom ashyo, texnologik jarayon va xodimlarning kasbiy tarkibi bilan tavsiflangan korxonalar majmuasidir³.


Yirik korxonalarning monopollashuvi deyarli barcha davlatlarda, ularning iqtisodiy rivojlanish darajasidan qat'i nazar, uchraydi. Zamonaviy iqtisodiy nazariyada "monopoliya" tushunchasi, odatda, salbiy ma'noda talqin qilinadi. Bu, birinchi navbatda, monopol korxonalarning raqobatchilarni siqib chiqarishi, yangi ishlab chiqaruvchilar uchun to'siqlar yaratishi, iste'molchi va yetkazib beruvchilarga narx bosimini o'tkazishi va ayrim hollarda davlatga iqtisodiy bosim ko'rsatishi bilan izohlanadi.

Mintaqani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda yirik strategik monopol korxonalarning o'rni, bozor xulq-atvori, boshqaruv va nazorat mexanizmlarini o'rganish muhim ahamiyatga ega. Xususan, sanoat monopoliyasi bilan tabiiy monopoliya o'rtasidagi munosabatlarni tahlil qilish orqali quyidagi holatlar aniqlanadi: birinchidan, xom ashyoni monopollashtirish orqali tarmoqlar ustidan nazorat o'rnatish va kapitalni samarali boshqarish imkoniyati yuzaga keladi; ikkinchidan, qazib olish va xom ashyo sanoatida monopoliyani shakllantirish nisbatan osonroq, chunki bu jarayon tabiiy resurs – yerga asoslangan bo'ladi. Bunday holat kapitalning o'zi to'liq shakllanmagan monopoliyaga xos xususiyatlardan biridir.

1 Шумпетер Й. История экономического анализа. В 3 т. — Т. 2. — СПб.: Экономическая школа, 2004.

2 Друкер П.Ф. Эпоха разрыва. Ориентиры для нашего меняющегося общества. М.: ИД «Вильямс», 2007.

3 Касимов А.А. Худудий sanoat tarmoqi samaradorligini oshirish jaraёнlarini modellash. Monografiya. — T.: «Lesson Press» MCHJ-nashriёti 2022 й. Б.—25.



1-rasm. Mintaqa iqtisodiyotini barqarorlashtirishda monopol korxonalarning o'рни

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda yirik monopol korxonalarning hududiy yalpi mahsulotni shakllantirishga qo'shgan hissasi, yangi ish o'rinlari yaratishdagi faolligi, shuningdek, ijtimoiy va infratuzilmani rivojlantirishga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi tahlil qilinadi. Shuningdek, korxona faoliyatining mintaqadagi ekologik vaziyatga ta'siri ham baholanishi kutilmoqda. Ayniqsa, soliq imtiyozlari va ularning viloyat byudjetidagi fiskal ahamiyati alohida tahlil obyekti sifatida ko'rib chiqiladi.

Tadqiqotda iqtisodiy tahlilning kompleks uslublaridan foydalaniladi. Jumladan, statistik ma'lumotlarni qayta ishlash, korxona hisobotlari asosida moliyaviy ko'rsatkichlarni tahlil qilish hamda mintaqaviy iqtisodiy ma'lumotlardan foydalanish orqali aniq ilmiy xulosalar chiqarish maqsad qilingan. Shuningdek, tahlil davomida 2014–2024-yillar oralig'idagi davriy iqtisodiy ko'rsatkichlarga asoslangan empirik ma'lumotlar asosiy manba sifatida jalb etiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Navoiy viloyati O'zbekiston sanoat salohiyatining markazlaridan biri hisoblanadi. Aynan ushbu hududda joylashgan "Qizilqumsement" aksiyadorlik jamiyati mamlakatdagi eng yirik sement ishlab chiqaruvchilardan



biri bo'lib, o'zining keng ishlab chiqarish quvvati, eksport imkoniyatlari va minglab ishchi o'rinlari orqali viloyat iqtisodiyotining barqaror o'sishida muhim rol o'ynamoqda. Korxonaning davlat byudjetiga qo'shayotgan moliyaviy hissasi, ichki investitsion faolligi hamda modernizatsiya loyihalari Navoiy viloyatida sanoatlashuv jarayonini jadallashtirishga xizmat qilmoqda.


Viloyat iqtisodiyotida "Navoiy kon-metallurgiya kombinati" AJdan tashqari bir qator yirik sanoat kompaniyalari ham faoliyat yuritmoqda. Ushbu korxonalar viloyat aholisining iqtisodiy bandligida, byudjet tushumlarida, eksport va investitsiya oqimlarida muhim ulushga ega. Xususan, "Qizilqumsement" AJ va "Navoiyazot" AJ ana shunday korxonalar sirasiga kiradi.

Mintaqa iqtisodiyotidagi monopol korxonaning mazmuni xo'jalik yurituvchi subyektning ma'lum bir mahsulot bozoridagi hukmronligida namoyon bo'ladi. Bu esa raqobatga sezilarli ta'sir ko'rsatish, boshqa xo'jalik subyektlarining bozorga kirishini cheklash imkonini beradi. Masalan, agar mintaqada ishlab chiqarish ikki yoki undan ortiq korxona o'rtasida taqsimlangan bo'lsa, har bir korxona kamroq mahsulot ishlab chiqaradi va natijada o'rtacha umumiy xarajatlar oshadi. Aksincha, agar mahsulotni yagona monopol korxona ishlab chiqarsa, istalgan hajmdagi ishlab chiqarishda xarajatlarni minimallashtirish mumkin bo'ladi. Bunday holatga aholi punktlarini suv bilan ta'minlash tizimi misol bo'la oladi.

Fikrimizcha, masalan, shahar aholisini suv bilan ta'minlashda yagona korxona tomonidan butun hududni qamrab oluvchi suv tarmog'ini qurish zarur bo'ladi. Agar bir nechta korxona ushbu xizmatni ko'rsatishda o'zaro raqobatlashsa, har biri alohida suv ta'minoti tizimini qurish uchun ortiqcha xarajatlarga duch keladi. Aksincha, bitta korxonaning yagona tizim orqali xizmat ko'rsatishi natijasida o'rtacha xarajatlar minimallasadi. Bu holat monopoliyaning shakllanishida bozor hajmi hal qiluvchi omil ekanligini ko'rsatadi va aynan shunday iqtisodiy model mintaq iqtisodiyotining barqaror rivojlanishida monopoliyaning bir qator muammolarini keltirib chiqarishi mumkinligini anglatadi.

"Qizilqumsement" AJ O'zbekiston Respublikasida sement ishlab chiqarish bo'yicha yetakchi sanoat korxonasi hisoblanadi. Korxona Navoiy shahrining janubi-g'arbiy qismida, shahardan 8 km, Toshkent-Buxoro temir yo'l liniyasidan esa 3 km janubda joylashgan. Hozirda "Qizilqumsement" AJ zamonaviy texnologik asbob-uskunalaridan foydalangan holda, texnologik jarayonni yuqori darajada avtomatlashtirish imkoniyatiga ega ilg'or korxona sifatida faoliyat yuritmoqda.

2014–2017-yillarda "Qizilqumsement" AJning sof tushumi 870,8 mlrd so'mdan 1 121,2 mlrd so'mgacha oshdi, bu esa qariyb 29 % o'sishni anglatadi. 2015-yildagi biroz pasayish (814,3 mlrd so'm) korxonaning tashkiliy va bozor sharoitlaridagi muammolar bilan bog'liq bo'lgan bo'lsa-da, 2016–2017-yillarda modernizatsiya jarayonlari va ichki bozor talabining tiklanishi daromadlarning keskin o'sishiga olib keldi⁴. Mazkur davrda yangi texnologik liniyalar joriy qilinishi va infratuzilma loyihalariga kiritilgan investitsiyalar korxonaning savdo hajmini mustahkamlashga xizmat qildi.



2-rasm. "Qizilqumsement" AJ 2014-2015 yillardagi yalpi foydasi.

Fikrimizcha, yalpi foydada o'zgarish sof tushum dinamikasiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan. Darhaqiqat, 2018–2020-yillarda korxona sof tushumida keskin siljish kuzatildi: 2018-yilda ko'rsatkich 1,66 trln so'mga, 2020-yilda esa rekord 2,22 trln so'mga yetdi. Xususan, 2020-yilda qayd etilgan qariyb 34 % o'sish "Qizilqumsement"

⁴ "Qizilqumsement" AJdan olingan moliyaviy balans ma'lumotlari (2014-2020 yillar hisobotlari).



AJning eksport salohiyatini kengaytirishi va qurilish bozorida ulushini oshirishi bilan izohlanadi. 2021–2024-yillar oralig'ida tushum tendensiyasi biroz pasayib, 1,91 trln so'mdan 1,72 trln so'mga tushdi; bu holat global pandemiyadan keyingi tiklanish davri va sement narxlarining barqarorlashuvi bilan bog'liq.

“Qizilqumsement” AJning sof foydasi tarkibiy omillar ta'sirida o'zgarib turgan: 2014–2017-yillarda ko'rsatkich 507,7 mlrd so'mdan 479,2 mlrd so'mgacha pasaygan bo'lsa-da, foyda marjasi (rentabellik) 58–67 % diapazonida yuqori darajada saqlanib qoldi. 2015-yildagi eng past ko'rsatkich (511,7 mln so'm) va 2016-yildagi 44,2 % marja bozor va tashkiliy noaniqliklar bilan bog'liq edi. Biroq 2018-yilda mahsulot tannarxini optimallashtirish hamda ichki bozorni kengaytirish natijasida yalpi foyda 872,3 mlrd so'mga, foyda marjasi (rentabellik) esa 52,5 % ga ko'tarildi, bu korxonaning ishlab chiqarish samaradorligini sezilarli darajada oshirdi.

Korxonaning moliyaviy barqarorligini chuqur o'rganish maqsadida 2014–2024-yillar oralig'idagi moliyaviy ko'rsatkichlar tahlil qilindi. Xususan, joriy likvidlik koeffitsienti 4,42 dan 11,94 gacha o'zgarib, o'rtacha 7–8 darajada saqlanganini ko'rsatdi. Bu, masalan, 2024-yilda korxona qisqa muddatli majburiyatlarini 10,55 barobar ortiqcha joriy aktivlar hisobidan qoplash imkoniga egaligini bildiradi. Yuqori likvidlik, sement sanoatiga xos bo'lgan katta aylanma xarajatlar va inventar fondlari sharoitida, korxonaning moliyaviy barqarorligini mustahkamlab, Navoiy viloyatidagi sanoat infratuzilmasini ishonchli ta'minlayotganini tasdiqlaydi. (1-jadval).

1-jadval. “Qizilqumsement” AJ 2014–2024 yillardagi moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlari⁵

Korxona moliyaviy ko'rsatkichlari	2014-yil	2016-yil	2018-yil	2020-yil	2022-yil	2024-yil
Joriy likvidlilik	7.31	5.50	11.94	4.42	5.17	10.55
Tezkor likvidlilik	4.14	2.93	8.22	1.30	2.29	5.16
Moliyaviy mustaqillik ko'rsatkichi	0.09	0.16	0.09	0.06	0.10	0.08
Moliyaviy leveranj	0.10	0.19	0.10	0.07	0.11	0.09
Aktivlar aylanish koeffitsiyenti	86.97	91.69	107.00	101.84	62.93	61.69
Kapital rentabelligi	19.33	6.98	23.98	28.92	13.16	11.68

Korxonaning tezkor likvidlik koeffitsienti ham 1,30 dan 8,22 gacha o'zgarib, 2024-yilda 5,16 darajaga yetgan. Normativ qiymat ≥ 1 bo'lgan taqdirda, “Qizilqumsement” AJ eng kam likvid aktivlar – naqd pul mablag'lari, debitor qarzarlar va qisman realizatsiyalash mumkin bo'lgan zaxiralar hisobidan qisqa muddatli majburiyatlarini erkin qoplash imkoniyatiga ega ekani aniqlanadi. Ushbu ko'rsatkich korxonaning moliyaviy favqulodda holatlarga bardoshlilikini, viloyatdagi yetkazib beruvchilar hamda pudratchilarga o'z vaqtida to'lovlarni amalga oshirish orqali iqtisodiy uzluksizlikni ta'minlash qobiliyatini ifodalaydi.

Korxonaning soliqqa tortish bazasini doimiy monitoring qilish tizimini joriy etish zarur. Ayniqsa, yer va mol-mulk soliqlari stavkalaridagi kutilayotgan o'zgarishlar oldindan prognozlash, bu esa korxonaga soliq yuklamalariga tayyorgarlik ko'rish imkonini beradi. Shu bilan birga, jismoniy shaxslar daromad solig'i orqali ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash maqsadida mehnat bozori dinamikasini doimiy ravishda kuzatib borish lozim. Viloyat iqtisodiy barqarorligida yirik soliq to'lovchilarning tutgan o'rni muhim bo'lib, ularning faoliyatini qo'llab-quvvatlovchi fiskal mexanizmlarni ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

“Qizilqumsement” AJning moliyaviy koeffitsiyentlari tahlili uning yirik sanoat korxonasi sifatidagi iqtisodiy barqarorligi va samarali faoliyat yuritayotganini ko'rsatadi. Joriy va tezkor likvidlik koeffitsiyentlarining yuqori darajada saqlanishi korxonaning qisqa muddatli majburiyatlarni osonlik bilan qoplash imkoniyatiga egaligini bildiradi. Shuningdek, moliyaviy mustaqillik va leverage (moliyaviy yelkali) koeffitsiyentlarining pastligi korxonaning tashqi qarzarlar borasida ehtiyotkor yondashuvga amal qilayotganini ko'rsatadi.

Korxona tomonidan amalga oshirilgan fiskal faoliyat respublika byudjeti uchun sezilarli daromad manbai bo'lib xizmat qilgan bo'lsa-da, 2024-yildagi keskin pasayish uni barqaror fiskal resurs sifatida baholashda ehtiyotkorlikni talab etadi. Shu bois, eksport salohiyatini oshirish, raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishni rag'batlantirish hamda yangi bozorlarni egallash orqali daromad bazasini tiklash zarur. Bundan tashqari, ishchi kuchining qisqarishi sharoitida yuqori mehnat unumdorligi saqlanib qolgan bo'lsa-da, bu holat korxonaning mintaqaviy ijtimoiy ta'sir doirasini qisqartirishi mumkin. Shuning uchun bandlik siyosatini ijtimoiy muvozanat tamoyillari asosida qayta ko'rib chiqish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

5 Muallif tomonidan yaratilgan



“Qizilqumsement” AJ viloyat byudjetiga soliq to'lovchi eng yirik korxonalardan biri hisoblanadi. Mazkur korxona tomonidan 2015–2024-yillar davomida amalga oshirilgan soliq to'lovlari uning Navoiy viloyati byudjetini shakllantirishdagi strategik o'rnini yaqqol ko'rsatadi. Tahlillar natijasi shuni ko'rsatadiki, jismoniy shaxslar daromad solig'i summasining barqaror saqlanib kelayotgani korxonada ijtimoiy mas'uliyat va mehnat barqarorligining mavjudligidan dalolat beradi. Yer va mol-mulk soliqlarining ayrim yillarda keskin o'zgarishi esa ishlab chiqarish maydonlarining kengayishi, aktivlar tarkibidagi transformatsiyalar yoki soliq siyosatidagi islohotlar bilan izohlanadi. Ushbu ko'rsatkichlar “Qizilqumsement” AJning nafaqat iqtisodiy, balki fiskal va ijtimoiy jihatdan ham mintaqaning rivojlanishidagi muhim o'rnini tasdiqlaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Viloyat iqtisodiyoti turli omillar – byudjet daromadlari, investitsiyalar, ish haqi, bandlik va eksport ko'rsatkichlari asosida tahlil qilinganda, barqaror o'sish, tarkibiy yangilanish va bozor iqtisodiyotiga moslashish jarayonlari yaqqol namoyon bo'ladi.

Tahlillar asosida xulosa qilish mumkinki, “Qizilqumsement” AJ kabi yirik sanoat monopoliyalari faoliyatida texnologik modernizatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish, ekologik barqarorlikni ta'minlash, chiqindilar miqdorini kamaytirish va energiya samaradorligini oshirish bo'yicha zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etish zarur. Shu bilan birga, atrof-muhitga salbiy ta'sirni minimallashtirish maqsadida ekologik monitoring tizimini yanada kuchaytirish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Шумпетер Й. История экономического анализа. В 3 т. — Т. 2. — СПб.: Экономическая школа, 2004.
2. Друкер П.Ф. Эпоха разрыва. Ориентиры для нашего меняющегося общества. М.: ИД «Вильямс», 2007.
3. Касимов А.А. Худудий саноат тармоғи самарадорлигини ошириш жараёнларини моделлаштириш. Монография. – Т.: «Lesson Press» МЧЖ-наширети 2022 й. Б.–25.
4. Н.Джулибеков. Ер қаъридан фойдаланувчиларни солиққа тортиш: маҳаллий амалиёт ва хорижий тажриба. Иқтисодий тараққиёт ва таҳлил. XI son - noyabr, 2024.Б.453-460. www.e-itt.uz.
5. Махмудов М.Ф. Методология кластерного подхода социально-экономического развития регионов: на примере республики Узбекистан. Социально-экономическое развитие государств евразии и других зарубежных стран № 9. 2023.
6. Разгулина. Е.Д. Оценка влияния крупнейших предприятий на социально-экономическое развитие территорий. Экономические и социальные перемены: факты, тенденции, прогноз 3 (33) 2014. С. 223.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>